



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

SHAXS MA'NAVIYAT SHAKLANTIRISHDA ESTETIK TARBIYANING O'RNI

Imomnazarova Gulasalxon Ulug'bek qizi
Farg'ona davlat universiteti, mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada shaxs ma'naviyati, uning shakllanishida estetik tarbiyaning o'rni, san'atning shaxs ma'naviyatiga aksiologik ta'sirini ijtimoiy-falsafiy tahlil etish dolzarb ijtimoiy muammo ekanligini asoslash, san'atning shaxs ma'naviyatiga aksiologik ta'sirining mohiyati, tuzilmasi va komponentlarini aniqlashtirish, san'atning shaxs ma'naviyatiga aksiologik ta'sirini ijtimoiy-falsafiy tahlil etish asoslarini tizimlashtirish, san'atning shaxs ma'naviyatiga aksiologik ta'sirini ijtimoiy-falsafiy tahlil etishning istiqboldagi ustuvor vazifalarini o'rganish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: shaxs ma'naviyati, estetik tarbiya, umuminsoniy qadriyatlar, san'at, madaniyat, zarurat, zamonaviy jamiyat, falsafiy tahlil, axloqiy ong, shaxs ma'naviyati, ijtimoiy taraqqiyot, insonparvarlik.

РОЛЬ ЭСТЕТИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ В ДУХОВНОМ ФОРМИРОВАНИИ ЛИЧНОСТИ

Имамназарова Гуласалхон Улугбек кизи
Ферганский государственный университет, независимый соискатель

Аннотация

В данной статье рассматривается духовность личности, место эстетического воспитания в его формирование, обоснование социально-философского анализа аксиологического влияния искусства на личную духовность как актуальной социальной проблемы, уточняется сущность, структура и компоненты аксиологического влияния искусства на личную духовность, систематизируются основы социально-философского анализа аксиологического влияния искусства на личную духовность, а также изучаются приоритетные задачи социально-философского анализа аксиологического влияния искусства на личную духовность в будущем.

Ключевые слова: духовность личности, место эстетического воспитания в его формирование, универсальные человеческие ценности, искусство, культура, необходимость, современное общество, философский анализ, моральное сознание, личная духовность, социальное развитие, гуманизм.

THE ROLE OF AESTHETIC EDUCATION IN THE SPIRITUAL FORMATION OF PERSONALITY

Imomnazarova Gulasalxon Ulug'bek qizi
Fergana State University, Independent Researcher

Abstract

This article discusses personal spirituality, the role of aesthetic education in its formation, the justification of the socio-philosophical analysis of the axiological impact of art on personal spirituality as a pressing social problem, the clarification of the essence, structure and components of the axiological impact of art on personal spirituality, the systematization of the foundations of the socio-philosophical analysis of the axiological impact of art on personal spirituality, and the study of the priority tasks of the socio-philosophical analysis of the axiological impact of art on

personal spirituality in the future.

Keywords: personal spirituality, the role of aesthetic education in its formation, universal human values, art, culture, necessity, modern society, philosophical analysis, moral consciousness, personal spirituality, social development, humanism.

Ma'lum bir san'at asarini yaratayotgan ijodkorning voqelikni estetik anglash qobiliyati, iste'dodi uning ma'naviy qiyofasi ichida yotadi. SHu ma'noda ma'naviyat rivojining qator omillari orasida asosiylaridan biri – bu madaniyat hamda san'at hisoblanadi. Zero madaniyat, san'at, adabiyot insonda mustaqil fikrningshakllanishiga ko'mak berishi bilan birga, uning ruhiyatini takomillashtiradi, tarbiyasiga ta'sirini ko'rsatadi, g'oyaviy qurollantirishda yordam beradi. San'at asarlarida ijodkorning iqtidori bilan birga uning insoniy xislatlari, qarashlari, hayotiy g'oyasi ham muhim o'rin tutadi. Uning o'ziga xos g'oyaviy "haqiqati", ichki qadriyatlari yaratilgan asarda biz yuqorida ta'kidlab o'tgan "imzo"sida aks etadi. Demak, ma'naviyat tarbiyasi madaniyat va san'atda yaratilqlarning tarbiyaviy va g'oyaviy xususiyatlarini qurollantirish bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan kelib chiqadi-ki:

- birinchidan, har bir jamiyat o'z ijodkorlarining ma'naviy qiyofasini yuksak darajasida shakllantirishga asoslangan chora-tadbirlash belgilashi, shart-sharoitlar yaratishi lozim bo'ladi;

- ikkinchidan, madaniyatlar transformatsiyalashuvi jarayonida milliy-madaniy unsurlarni saqlab qolish uchun milliy madaniyat asoslarini chuqur o'rganish, tahlil qilish va uni odamlar shuuriga singdirish choralarini ko'rish lozim;

- uchinchidan, madaniyat va san'atda milliy unsurlarning asos sifatida namoyon bo'lishi – millatning o'zligi va mavjudligidan dalolat ekanligini hisobga olgan holda, ushbu soha xodimlariga ushbu mavzular fan sifatida o'qitilishi kerak.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbekistonda san'atning shaxs ma'naviyatiga aksiologik ta'sirining falsafiy, ijtimoiy-antropologik, psixologik masalalari M.Kaxxarova, A.Mavrulov, J.Tulenov, G.Tulenova, E.Yusupov, O.G'aybullaevlar tomonidan tadqiq etilgan. Psixolog olimlardan M.Davletshin, V.Karimova, A.Leont'ev, A.Maslou, Z.Nishonova, L.Rubinshteyn, N.Safaev, E.G'oziev kabilar tomonidan muammoning psixologik jihatlarini o'rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida san'atning shaxs ma'naviyatiga aksiologik ta'siriga doir fundamental tadqiqotlar olib borilgan va bugungi kunda ham davom ettirilmoqda. Ma'naviy tarbiya berish vazifalarini tadqiq etgan olimlar qatoriga A.Frolov, V.Kinelev, I.Kosova, B.Azarov, L.Vigotskiy, S.Rubinshteyn, V.Bespalko, A.Kovalyovni kiritish mumkin.

G'arb mamlakatlarida James R. Ozinga, Jakob Neusner, George Herbert Palmer, Robin Gill, Andrev Michael Flescher, Daniel L. Vorthen va boshqalarning tadqiqot ishlarida ma'naviy tarbiyaning nazariy asoslari o'rganilgan.

Biroq shaxs ma'naviyatining shakllanishida estetik tarbiyaning o'rni va ahamiyati, uning mazmuni, metodi, vositalari alohida tadqiq etilmagan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ma'naviy tarbiya jarayonining yo'nalishlaridan biri estetik tarbiya hisoblanadi. Estetik tarbiya shaxsda estetik ong, estetik ideallar, estetik did, estetik faoliyatni shakllantirishga qaratilgan tarbiyaning turi bo'lib, uning maqsadi shaxsda go'zallikni anglash va unga to'g'ri munosabatni shakllantirishdaan iborat. Jamiyat tobora taraqqiy etib, unda demokratik jarayonlar tobora kengayib borgani sari jamiyat a'zolarining go'zallikka intilishi, undan bahramand bo'lish, estetik madaniyatini oshirib borish hamda o'z faoliyatining estetik jihatlariga e'tibor qaratishi yuksalib boradi.

Hozirgi kunda tarbiya jarayonini amalga oshirish murakkab kechmoqda. Taraqqiyotning o'ta dinamik xususiyati, milliy madaniyat, san'at va qadriyatlar

transformatsiyasi, globallashuv natijasida tarqalayotgan yangicha esestetik mahsulotlar, ommaviy madaniyatning salbiy ta'siri, yoshlarda esestetik ideallar va esestetik didning soddalashib borishi kabi xolatlar va go'zallik to'g'risidagi tasavvurlarning ham milliy xususiyatini tobora yo'qotib, o'zgarib borish i boy mohiyatga ega bo'lgan milliy madaniyat va qadriyatlarni to'la aks ettiradigan esestetik tarbiyaga ta'sir etayotgani aniq. Esestetik tarbiyani murakkablashtirayotgan zamonaviy omillarga zamonaviy kino Internet, televidenie, OAV kabilarda oddiy badiiy asarlarning ko'payib borishi kabilarni kiritish mumkin.

Insonning mohiyatiga e'tibor bersak, unda tug'ma go'zallikni sevish, unga intilish va go'zallikni yaratishga moyillik bo'lib, uning butun hayoti davomida bunday xususiyat namoyon bo'ladi. Bolaning tug'ilganidan boshlab har qanday hatti-harakatida go'zallikka intilish va uni sevish elementlari ko'zga tashlanadi.

Shaxsning muntazam go'zallikka intilishi va bu yo'lda faoliyat olib borishi uchun ma'lum sharoitlar va imkoniyatlar mavjud bo'lishi lozim. O'zbekistonda modernizatsiya jarayonining kengayib borishi, islohotlarning amalga oshishi, barcha soxalarda yangilanishning yuzaga kelayotganligi natijasida inson taraqqiyoti uchun yuzaga kelayotgan imkoniyatlar ularni tobora go'zallikni anglash, esestetik madaniyatni o'zlashtirib borish, esestetik didini yanada tarbiyalab borish tomon yo'naltiradi. Jamiyat a'zolarining har qanday faoliyatida esestetik elementlarni yanada yaqqol ko'rinishiga va rivojlanishiga olib keladi.

Badiiy tarbiya esestetik tarbiyaning tarkibiy qismi bo'lib, u esestetik tarbiyaning asosiy mazmunini va maqsad yunalishlarini to'la ifodalamaydi. Badiiy tarbiyaning asosiy maqsadi — munosabatlarni san'at vositalari yordamida shakllantirishdir [1, 313]. Shuni nazarda tutish lozimki, esestetik tarbiya san'at bilan chegaralanib qolmaydi, balki uning asosiy mazmuni insonning voqelikka esestetik munosabatini faollashtirish va rivoj-lantirishdan iboratdir. Shaxsning har tomonlama barkamol shaxs sifatida tarbiyalash jarayoni ma'naviy tarbiyaning yuqorida qayd etilgan barcha yo'nalishlari asosida amalga oshirilishi zarur. Bu jarayonda ma'naviy tarbiyaning muhim elementi esestetik tarbiya hisoblanadi. Ayniqsa, yoshlarning barkamol shaxs sifatida ma'naviy tarbiyasida ularning go'zallikni anglab, unga oshno bo'lib borishi muhim ahamiyatga ega. Chunki aynan esestetik tarbiya tarbiyaning boshqa shakllariga nisbatan shaxsning didi, esestetik ideallari, go'zallik yaratish borasida faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Ma'naviy tarbiyaning barcha yo'nalishlari shaxsning ma'naviy qiyofasini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, u murakkab xususiyatga ega, esestetik tarbiya ham bundan mustasno emas. Esestetik tarbiya mohiyatiga ko'ra san'atni anglash, esestetik did va idealni shakllantirish, olamga esestetik munosabat kabi hodisalarni o'z ichiga oladi. Esestetik munosabat ma'naviy munosabatning elementi bo'lib, bu jarayonda muhim rol o'ynaydi. Esestetik tuyg'ular yuqori intellektual salohiyatga ega bo'lgan kishilarga xos bo'lib, ularning ijodiy salohiyatining taraqqiyotiga ta'sir etadi.

Ma'naviyatning globallashib borishi hamda buning natijasida ommaviy madaniyatning yoshlar madaniyatiga ta'siri ortib borayotgan xolatda jamiyatda esestetik tarbiyaning ahamiyati yanada muhim bo'ladi. Jamiyatda modernizatsiya va islohotlar amalga oshirilayotgan hamda milliy madaniyat va san'atning demokratlashib va transformatsiyaga uchrab borayotgan sharoitda esestetik tarbiyaning roli yanada dolzarb bo'ladi.

Esestetik tarbiyani tashkil etish tizimida qator tamoyillar yotadi [2, 395-397]. Esestetik tarbiyani amalga oshirish jarayonida esestetik ongning quyidagi elementlariga e'tibor qaratish lozim. Bunga birinchidan, esestetik hodisalar, san'at to'g'risidagi bilimlar, turli nazariyalar, kategoriyalar, g'oyalar kiradi. Esestetik madaniyatni shakllantirish esa borliqdagi va san'atdagi go'zallikni to'liq idrok etadigan va to'g'ri tununadigan shaxs qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan jarayondir [3, 64]

Ikkinchidan, esestetik tarbiyaning muhim elementi hisoblanadigan shaxsning badiiy asar va boshqalarning san'at soxasidagi ijodiga o'z munosabatini ifoda etuvchi bo'lgan esestetik tanlovi, esestetik baho, esestetik didi va ijodiy ideallari bilan bog'liq tasavvurlar kiritilishi

mumkin. Bu jarayonda shaxs tomonidan estetik obyektlar, estetik hodisalar hamda ijod obyektlari baholanadi. Shu bilan birga ularni baholash asosida shaxs o'zining estetik didi, tanlovi va qadriyatlarini ham baholaydi. Estetik baholash orqali inson o'zining ham ma'naviy-estetik xususiyatlarini aniqlaydi va o'z-o'ziga baho beradi.

Estetik tarbiyaning uchinchi muhim jihati shaxsda estetik tuyg'ular, estetik zavq, lazzat, san'at asarlariga estetik munosabat bildirish orqali bu soxada shaxsning didini shakllantirish, o'zgartirish yoki tartibga solish bilan bog'liq. Estetik tarbiyaning bu jihati shaxsning ma'naviy-estetik ongini trabiyalash bilan birga uning estetika, xususan san'at soxasida shakllanadigan axloqiy qoidalarini hamda ideallarini tartibga solib turadi. Shaxs o'zining milliy estetik qadriyatlari orqali boshqa xalqlarning estetik qadriyatlariga ham munosabatini shakllantirib boradi. Natijada uning ma'naviy-estetik ongida milliy qadriyatlarga va uning tizimidan muhim o'rin egallagan estetik qadriyatlarni to'g'ri aksiologik anglash shakllanadi. Bu esa ma'naviy soxada shaxsda milliy va umuminsoniy estetik qadriyatlarning hamda milliy va umuminsoniy san'atning uyg'unlashuviga mos ravishda to'g'ri munosabatni amalga oshishi mumkin. Shunday qilib shaxs turli xalqlar va millatlar tomonidan yaratilgan va yaratilayotgan madaniyat va san'at elementlarini tobora ko'proq tushunib va anglab borishi amalga oshadi.

Estetik tarbiyaning to'rtinchi muhim jihati shundan iboratki, u shaxsda san'atga, go'zallikka va badiiy ijodga nisbatan to'g'ri munosabat bilan birga muhim estetik va ijodiy ehtiyojlarni shakllantirishga qaratilgan. Bular shunchaki ehtiyojlargina emas, anglangan estetik ehtiyojlarga aylanib boradi. Bunday ehtiyojlar shaxsda yuksak estetik did va estetik ideallarni shakllanishiga olib keladi. Tarbiyaning estetik shakliga oid aytib o'tilgan fikrlar birdek jamiyatda barkamol shaxsni shakllanishiga ham tegishli. Chunki estetik tarbiya barkamol shaxs tarbiyasining muhim yo'nalishi bo'lib, uning jamiyat ma'naviy taraqqiyotiga ham ta'siri ulkan. Ayniqsa, bu jarayon yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangi O'zbekiston jamiyatida unga xos bo'lgan va yangi jamiyatning talablari va ehtiyojlarini aks ettiruvchi, yangicha mohiyatga ega bo'lgan ma'naviy madaniyat shakllanishi va taraqqiy etishi zarur. Jamiyatning madaniy va ma'naviy taraqqiyoti, madaniy-ma'naviy boyligi, uning a'zolarining ham ma'naviy yuksak bo'lib shakllanishini ta'minlaydi. Uning muhim yo'nalishi sifatida estetik madaniyat, estetik ongning shakllanishi mamlakatning ijtimoiy-madaniy va ma'naviy taraqqiyotiga xizmat qiladi. Bu jarayonlar kishilarning estetik bilimlari, estetik salohiyatining yuksalishi, estetik ideallarining to'g'ri shakllanishi kabilarga samarali ta'sir etadi va yuksak san'at asarlarining yaratilishi, estetik qadriyatlarning tanlay bilishi asosida milliy estetikaning ham rivojiga olib keladi. Ayniqsa, yoshlarning estetik tarbiyasi jarayonida qayd etilgan hodisalarning ahamiyati katta. Chunki estetik tarbiya faqat san'at soxasigagina emas, kundalik turmush tarzi, madaniyati, ijtimoiy – kundalik faoliyatiga ham tegishli bo'lib, go'zallikka to'g'ri munosabatni shakllantiruvchi hodisa hisoblanadi. Shundan kelib chiqsak, Estetik tarbiya – shaxsda tabiat, mehnat, ijtimoiy munosabatlardagi go'zallikni estetik ideal nuqtai nazaridan idrok etish va baholash, shuningdek voqelikni go'zallik qonunlariga ko'ra o'zgartirish ehtiyojini his etish qobiliyatini shakllantirishga yo'naltirilgan muntazam ta'sir jarayonidir [4, 7]

Inson o'z hayotida uni o'rab turgan olamni turlicha o'zlashtiradi va anglab boradi. Bunday munosabatning turlicha shakllari mavjud bo'lib, ular ilmiy, axloqiy, diniy, badiiy (estetik) va boshqa munosabatlarda aks etishi mumkin.

Olamga estetik munosabat boshqalardan farq qiladi. Estetik tarbiya jarayonida estetik ong shakllanadi. Estetik ong o'ziga xos murakkab tizim bo'lib, uning quyidagi elementlariga e'tibor qaratiladi: estetik madaniyat, estetik faoliyat, estetik ong, estetik bilimlar, estetik qadriyatlar, estetik ideal, estetik did, estetik his-tuyg'u.

Estetik madaniyat – madaniyatning muhim yo'nalishi bo'lib, jamiyat va insonning hayotida, estetik faoliyatida aks etadigan borliqni go'zallik nuqtai nazaridan estetik

o'zlashtirish, estetik madaniyat elementlarini va qadriyatlarni yaratish va iste'mol qilish usullarini va ko'nikmalarini ifoda etuvchi ijtimoiy hodisa bo'lib, unda go'zallikka, mukammallikka oshno bo'lish asosida estetik bilimlar, qadriyatlar, tasavvurlar, estetik his-tuyg'u, estetik did va g'oyalarning majmuasini aks etadi.

Dunyoda istiqomat qilayotgan barcha xalqlar va millatlar o'ziga xos madaniyati va san'ati tarixiga ega bo'lib, bu tarixiy jarayon ularning hayoti, turmush tarzi, an'analari, qadriyatlari va kundalik urf-odatlarini aks ettiradi. Demak, madaniyat va san'at jamiyat va unda yashab faoliyat olib borgan turli kishilarning ijtimoiy hayotini aks ettiradi. San'at hodisasi ijtimoiy xususiyatga ega hamda keng qamrovli tarixiy xodisa bo'lib, uning turli shakllari va qirralari mavjud.

XULOSA

Xulosa qilganda, birinchidan, ma'naviyat bu – insonning siyrati, ma'no-mag'zi. Shu ma'noda u inson hayotining mohiyati va umr mazmunini belgilab beradi. Ikkinchidan, ma'naviyat bu – insonning haqiqati. Inson dunyo voqeliklarida ishtirok etar ekan, uni anglay boshlaydi, tafakkur ila tahlil qiladi, ularga nisbatan his-tuyg'ularini namoyon etadi. Shu barobarida o'zi to'g'ri, deb topgan narsalardan o'z haqiqatini yaratadi.

San'at turli xalqlar va millatlar ijtimoiy hayotining mohiyatini aks ettiradi va jamiyat hayotining o'zgarib borishi bilan birga o'zgarib, transformatsiyaga uchrab boradi. Shunga ko'ra u dialektik xususiyatga ega bo'lgan ijtimoiy-madaniy va estetik-aksiologik hodisa hisoblanadi.

Estetik tarbiyaning vazifalari shaxsning umumiy o'sishi va rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ijodkorlikni, tanqidiy fikrlashni, hissiy ongini, madaniy qadrlashni va axloqiy qadriyatlarni tarbiyalash orqali estetik tarbiya butun jamiyatning boyishiga hissa qo'shadi. San'at va ijodiy ifoda bilan shug'ullanish orqali shaxslar go'zallik va uyg'unlik tuyg'usini rivojlantirishga, shuningdek, kuchli axloqiy kompas va ijtimoiy mas'uliyat hissini rivojlantirishga qodir. Shunday qilib, estetik tarbiya vazifalari shaxsiy va ijtimoiy o'sishning poydevori bo'lib xizmat qiladi, shaxslar hayotini boyitadi va yanada jonli va inklyuziv jamiyatni rivojlantiradi. Yangi O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy o'zarishlar bu jarayonning ifodasi bo'lib, ayni vaqtda ma'naviyat sohasida milliy qadriyatlarni tiklash va yanada rivojlantirish; jamiyat ma'naviy hayotida adabiyot va san'atning ahamiyatiga e'tiborni kuchaytirish; ijodiy salohiyat uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratish; ma'naviy sog'lom avlodni tarbiyalash; yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirishda sharqona an'analardan ijodiy foydalanish tufayli yanada keng ijtimoiy ma'no kasb etmoqda. Ma'naviy yetuk jamiyatlarda sog'lom fikr, aql, adolat va yaxshi xulq ustuvor bo'ladi. Bunday jamiyatlarda xalqning ertangi kuniga ishonchi yuksak bo'ladi, insonga nomunosib tarzda turli illatlar barham topadi. Bu jarayonda estetik tarbiyaning o'rni beqiyosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Педагогический энциклопедический словарь – М.: Большая Российская энциклопедия, 2002.
2. Б.Т. Лихачев. Педагогика – М.: ЮРАЙТ, 2003.
3. Общая педагогика / Под.ред. В.А. Сластенина – М.: Владос, 2003. –
4. Валихўжаева Ф.Б. Талабаларни мактабгача таълим муассасаларида болаларга эстетик тарбия беришга тайёрлаш. Пед.фан.ном. ...дис. авт. 2005.
5. Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли луғати. Т.: F.Фулум, 2010.